ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI



13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

№8
2025

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI

Elektron nashr. 276 sahifa,
1-avgust, 2025-yil.

**BOSH MUHARRIR:**
**Karimova E’zoza Gapirjanovna –** O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirli

**BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI:**
**Ibragimova Gulsanam Ne’matovna** – Pedagogika fanlari doktori, professor

***TAHRIRIYAT KENGASHI A’ZOLARI***
***Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik***
***Shoumarov G‘.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik***
***Qirg‘izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor***
***Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Ma’murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Qo‘ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor***
***Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)***
***Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)***
***Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog‘iston)***
***Rejep O‘zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)***
***Wookyu Cha – Koreya milliy ta’lim universiteti rektori (Koreya)***
***Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)***
*Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent*
***Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor***
***G‘afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)***
***Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti***
***Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor***
***Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),dotsent***
***Doniyorov S. M. –“Yangi O‘zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)***
***Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent***
***Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori***
***Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)***
***Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari***
***Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo‘limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)***

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ
Hamkorlarimiz: O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**
**Karimova E'zoza Gapirzhanovna –** Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

***EDITORIAL BOARD MEMBERS:***
***Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician***
***Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician***
*Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor*
***Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor***
***Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)***
***Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)***
***Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)***
***Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)***
***Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)***
***Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)***
**Mizayeva F. O.** – **Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**
***Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor***
***Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)***
***Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor***
***Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service***
***Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor***
***Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)***
***Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor***
***Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics***
***Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology***
***Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region***
***Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences***

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
• Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
• Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)
Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
• Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
• Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA CONTENTS СОДЕРЖАНИЕ

# MUNDARIJA

Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori modeli:
tizimli boshqaruv yondashuvi asosida shakllanishi....14
**Abdullayeva Nafisa Shavkatovna, Maraimova Muxtabar Pulatovna**

O'smirlardagi nevroz holatining psixologik xususiyatlari....20
**Abduraximov Doniyor Abdusaid o'g'li**

Ta'lim siyosati va o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi:
xalqaro tajriba va o'zbekistonda amaliyot taqqoslamasi....25
**Ahadova Mushtariybonu Akmal qizi**

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini
rivojlantirishning hozirgi holati va o'ziga xosligi....30
**Beknazarova Muxlisa O'tkir qizi**

Ta'lim sifatini oshirishda "Barkamol avlod" bolalar maktablarining zarurati va ahamiyati....33
**Eshmuminova Oybarchin Botirovna**

Bolalarda nutq kamchiliklari: etiologiya, rivojlanish dinamikasi va erta aralashuv....39
**Isayeva Mushtariy Alisher qizi**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kitobxonlikka o'rgatish usullari....44
**Maydonova Saboxat Sadulloyevna**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik vositasida badiiy adabiyot namunalariga qiziqishni
shakllantirishning o'ziga xos jihatlari....48
**Mingbayeva Barno Ubaydullayevna**

Pedagogical Characteristics in Enhancing Speaking Skills of Esp Learners
in English Language Classes Through Digital Technologies....52
**Pardayeva Zulaykho Yusubjonovna**

Nutq buzishlarida uchraydigan idrok jarayonining o'ziga xos xususiyatlari....55
**Ruziyeva Guzal Shuxrat qizi**

"Biologik savodxonlik" tushunchasi zamonaviy ta'lim paradigmasi kontekstida....59
**Umaraliyeva Mamura Tashxodjayevna**

O'qituvchi faoliyatida kasbiy madaniyatning o'rni....65
**Umarova Feruzabonu Bobir qizi**

Gamifikatsiyalangan jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining 11–12 yoshli o'quvchilarda
emotsional barqarorlikka amaliy ta'siri....68
**Tojiyev Baxriddin Baxtiyorovich**

O'quvchi yoshlarni milliy qadriyatlar va an'analarga hurmat ruhida tarbiyalashning nazariy asoslari....72
**Isokov Ravshanbek Ulug'bek o'g'li**

Media va axborot savodxonligi 21-asr pedagoglarning asosiy kompetensiyasi sifatida....76
**Boypolvonov Barot Djonqobulovich**

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining leksik kompetensiyasini takomillashtirishning
lingvistik va lingvometodik talqini....81
**Ismoilova Zarnigor Raximjon qizi**

O'quvchi yoshlarni milliy qadriyatlar va an'analarga hurmat ruhida tarbiyalashning nazariy asoslari....86
**Isokov Ravshanbek Ulug'bek o'g'li**

Pedagogik faoliyatda stress namoyon bo'lishiga ijtimoiy omillarning ta'siri....90
**Jumanova Ug'iloy Sodiqjonovna**

Oliy ta'lim muassasalarida nomutaxassislik yo'nalishlarida ingliz tilini o'qitishni takomillashtirish....96
**Koshayeva Sansabila Kamiljanovna**

Ijtimoiy-ekologik madaniyatni rivojlantirishda xalqaro tajribalar va ta'lim jarayonining o'rni....100
**Mamajonova Fotimaxon O'ktamovna**

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ kompetentligini rivojlantirishning ahamiyati....105
**Murodova Madina Karim qizi**

Elektrotexnika va elektronika fanini o'qitishning zamonaviy metodlari....108
**Ortiqov Mironshoh Sodiqovich**

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishda Blended learning texnologiyasini O'zbekiston oliy ta'lim tizimiga tatbiq etish ....... 110
Pakirdinova Sharofat Abdumutaljonovna

O'zbekistonda ta'lim sohasi bo'yicha strategik dasturlarni ishlab chiqish istiqbollari ....... 115
Quronboyeva Mavluda Bahodirovna

Xalqaro baholash dasturlari va neyropedagogika ....... 120
Sidiqova Yulduz Sobirovna

6-sinf o'quvchilarida matn bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish metodikasi ....... 123
Xamroyeva Dilnoza Jahongir qizi

Talabalarda pedagogik qobiliyatlarni shakllantirishda pedagogik texnologiyalarning ahamiyati ....... 128
Yusupov Ulug'bek Kadirovich

Adabiy ta'lim jarayonida o'quvchi ma'naviy kamolotini ta'minlashda motivatsiya uyg'otish texnologiyalarini takomillashtirish ....... 132
F. Zaynabuddinov

Развитие поликультурной компетентности студентов в образовательной среде вуза ....... 135
Киреева Эльвина Фларитовна

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda pedagogik xususiyatlar ....... 140
Sanayev Gayrat Shermuxamedovich

Maktabgacha yoshdagi bolalar muloqot madaniyatini tarbiyalashning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish ....... 144
Boybo'riyeva Saodat O'ralovna

Kattalar ta'limi texnologiyasi: muammolar, yondashuvlar va rivojlanish yo'nalishlari ....... 148
Davletova A.

Yangi O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirishning huquqiy asoslari ....... 152
G'aniyeva Gulrux Tavakkaljon qizi

Innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy-axloqiy sifatlarini rivojlantirish ....... 156
Madmarova Gulchexra Qodirovna

O'lkashunoslik materiallarining oliy ta'lim jarayonida tarbiyaviy salohiyatini ochib berish ....... 160
Mamajonov Mo'minjon

Muhandislik grafikasi darslarida o'quv faoliyatining shaxsga yo'naltirilgan innovatsion modeli ....... 165
Mamasidikova Gulnora Muhammad qizi

Sun'iy intellektga asoslangan ta'limiy resurslarning pedagogik imkoniyatlari ....... 169
Muhiddinov Muhriddin Nuriddin o'g'li

Ijod maktablari o'quvchilarining badiiy-ijodiy kompetensiyasini rivojlantirishda interfaol metodlarning ahamiyati ....... 173
Nurmatova Shohistaxon Muhammadjonovna

Voleybolchi qizlarni tayyorlashning differensial vositalaridan foydalanish zarurligini, ularning o'yin ampluasini hisobga olgan holda aniqlash usullari ....... 178
Odilova Feruzaxon Valijon qizi

PIRLS baholash tizimini qo'llash vositasida mustaqil o'qishga o'rgatishda IMEN texnologiyalaridan foydalanish ....... 184
Olimjonova O'g'ilxon Abdurasul qizi

Yoshlar o'rtasida internet qaramligi va ijtimoiy izolyatsiya zamonaviy Maugli sindromining klinik ko'rinishlari ....... 188
Polvanov Rasulbek Baxtiyarovich

Boshlang'ich maktabda o'zbek tili darslarida differensial ta'limdan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari ....... 192
Rasulova Nozigul Abdivahid qizi

Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini takomillashtirish ....... 196
Sharofova Nilufar Ilhom qizi

Xalqaro baholash dasturlari asosida ta'lim samaradorligini oshirishning pedagogik shart-sharoitlari (PIRLS misolida) ....... 200
Tuxtasinova Munira Ibragimovna

Fransuz tili darslarida tabiatshunoslik atamalarini boshlang'ich sinflarda shakllantirish va o'rgatishning o'ziga xos xususiyatlari ....... 204
Umarova Madinabonu Bahodir qizi

O‘smir psixologik salomatligini barqarorlashtirishda art-terapiyadan foydalanishning imkoniyatlari ............208
Yusupxodjayeva Umida Baxodir qizi

Nofillologlarni (filolog bo‘lmaganlarni) kasbiy aloqa madaniyatiga o‘rgatish maqsadida zamonaviy ingliz tilining lingvometodik tahlili ........................................214
Zarina Itolmasova

Forsayt va qaror qabul qilishni bog‘lovchi kognitiv komponentlar........................................219
Hasanova Sumanbar Hamroqulovna

Разработка и внедрение виртуальных лабораторных работ по биохимии для студентов фармацевтических факультетов........................................222
Мамадалиева Зарина

Abduqodir Shakuriyning ta’lim va tarbiya haqidagi umumiy qarash va g‘oyalari: chuqur tahlil ....................226
Ashurova Dilrabo Isroil qizi

Bo‘lajak pedagoglarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish tizimi ..230
Jakbarova Zarifaxon Solijon qizi

Badiiy-estetik qobiliyat tuzilmasi va uning rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar ........................................233
G. S. Kaxarova

Umumta’lim maktablarida informatika o‘qitish asosida ta’limni raqamlashtirishning metodologik asoslari...236
Mamajanov Rakhmatilla Yakubjanovich

Shaxsda ma’naviy intellektni rivojlanishiga qadriyatlar yo‘nalganligining ta’siri........................................240
Mirxoliqova Charos Xabibullayevna

O‘qituvchilarning sun’iy intellekt bo‘yicha kompetentligini rivojlantirishda metodik yondashuv ....................244
Najmetdinova Nargiza Sayfetdinovna

Ismlarning ma’noliligi va ularni o‘qitishda lingvopedagogik yondashuvlar ........................................252
Sanakulov Zayniddin Ibodullayevich

Fitnes-aerobika mashqlaridan foydalangan holda sog‘lomlashtirish mashg‘ulotlari uslubiyati....................258
Shaxriddinova Laylo Nurxonovna

Raqamli ta’lim texnologiyalarining didaktik va “learning analytics”ning nazariy asoslari ............................262
Sulaymanov Zulqaynar Rajabali o‘g‘li

Esse yozishni o‘rgatishda zamonaviy metodlar........................................268
Xamroyeva Dilnoza Jahongir qizi

Iqtisodiy matnlar tarjimasini o‘rgatishda raqamli simulyatsiya va virtual reallik (VR) texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari........................................272
Xujanazarova Nozima Omonjonovna

MAKTAB TA'LIMI SCHOOL EDUCATION ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

# SHAXSDA MA'NAVIY INTELLEKTNI RIVOJLANISHIGA QADRIYATLAR YO'NALGANLIGINING TA'SIRI

Mirxoliqova Charos Xabibullayevna
Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlar tayyorlash instituti
Boshqaruv mahorati va yetakchilik ko'nikmalarini
rivojlantirish kafedrasi mudiri, Phd

**Annotatsiya:** Maqolada shaxs ma'naviy intellektni rivojlantirishda qadriyatlar yo'nalganligining ta'sir masalasini yoritishga e'tibor qaratilgan. Bunda asosiy e'tibor ma'naviy intellektning shaxs taraqqiyotidagi o'rni, uning namoyon bo'lish xususiyatlari hamda turlari, ko'rinishlari xususidagi fikrlar ilgari surilgan. Ayniqsa, shaxs ma'naviy intellektining rivojlanishida asosiy psixologik mezonlarning o'rni asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** shaxs, intellekt, ma'naviyat, ahloq, ma'naviy intellekt, qobiliyat, lingvistik, mantiqiy-matematik, musiqiy, fazoviy, kinestetik, o'zini o'zi anglash, ijtimoiy (shaxslararo).

**Abstract:** The article focuses on highlighting the issue of the influence of value orientation on the development of a person's spiritual intelligence. At the same time, the main attention is paid to the role of spiritual intelligence in the development of personality, the features of its manifestation, as well as opinions about its types and manifestations. In particular, the role of the main psychological criteria in the development of a person's spiritual intelligence is substantiated.

**Key words:** personality, intellect, spirituality, morality, spiritual intellect, ability, linguistic, logical-mathematical, musical, spatial, kinesthetic, self-awareness, social (interpersonal).

**Аннотация:** В статье основное внимание уделяется освещению вопроса влияния ценностной ориентации на развитие духовного интеллекта личности. При этом основное внимание уделяется роли духовного интеллекта в развитии личности, особенностям его проявления, а также видам и проявлениям. В частности, обоснована роль основных психологических критериев в развитии духовного интеллекта личности.

**Ключевые слова:** личность, интеллект, духовность, нравственность, духовный интеллект, способность, лингвистический, логико-математический, музыкальный, пространственный, кинестетический, самосознание, социальный (межличностный).

## KIRISH

Ta'lim ijtimoiy-ma'naviy hodisa bo'lib, madaniyatda insonni takror ishlab chiqarishni ta'minlaydi. Ta'limning muhim xususiyati aql va ruhni rag'batlantiruvchi intellekt jarayoni hisoblanadi. Bugungi kun ta'limi mutaxassislarni tayyorlashga amaliy yo'naltirilganlikning muhimligini e'tirof etgan holda, kasbiy ta'limga shaxsni shakllantirish jarayoni sifatida yondashuv muhimligini ko'rsatadi. Shunday qilib, ma'naviy-axloqiy rivojlanish masalasi mutaxassis shaxsini tayyorlash masalasi kabi dolzarb bo'lib qolmoqda.

Shaxs shakllanadigan ijtimoiy-madaniy va axloqiy-ekologik makon ilm-fan va axloq evolyusiyasiga imkon beradi. Fan inson hayotiga tahdid solmaguncha dunyoni bilishda erkinlikka ega. Ikkinchi tomondan, rahm-shafqat, empatiya va muhabbat kabi axloqiy tarkibiy qismlar insonga ilmiy bilish kabi zarurdir. Fan va axloq evolyusiyasi fan va ta'lim integratsiyasining asosidir.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bugungi kunda tadqiqotchilar ma'naviy-axloqiy rivojlanish va kasbiy mahoratni yaxlit inson kontekstida ko'rib chiqmoqdalar. “Hozirgi vaqtda ta'lim metodologiyasi va amaliyotida mutaxassis shaxsi va faoliyatining me'yoriy modelidan uning kasbiy tayyorgarligi mazmuniga qo'yiladigan talablarni shakllantirishdan mutaxassisning kasbiy shakllanishini shaxsni loyihalashtirish jarayoni sifatida ko'rib chiquvchi refleksiv-sub'yektli modelga o'tish tendensiyasi kuzatilmoqda”, - deb ta'kidlaydi L.I.Ivankina [1]. Shu bilan birga, agar jamiyat inson shaxsining qadriyatini tan olsa, sotsium talablari va shaxsning tabiiy moyilliklarini amalga oshirish vazifalari o'rtasidagi ziddiyat hal qilinishi mumkin.

Shaxsning qadr-qimmatini e'tirof etish yo'li ma'naviy intellektni shakllantirish orqali amalga oshiriladi.

Shaxsning oqilona-axloqiy mohiyati muammosi maxsus adabiyotlarda bir necha marotaba muhokama qilingan.

Blez Paskal aqlan fikrlovchi yurakka ("qalbga", "axloqiy his-tuyg'uga") va quruq aqlga qarama-qarshi qo'yuvchi yurak aqliga murojaat qilgan edi.

S.Kerkegor "Inson shaxsida estetik va etnik asoslarning uyg'un rivojlanishi" asarini yozganida shaxsning oqilona axloqiy mohiyati haqida gapirgan.

Rus diniy ma'rifatchilari V.V.Zenkovskiy, I.V.Kireyevskiy, A.S.Xomyakov, Yu.F.Samarin, V.S.Solovev, N.O.Losskiy va boshqalar aql, his-tuyg'u va irodani birlashtirish, inson qalbining yaxlit "to'qima"sini yaratish masalalariga katta e'tibor qaratdilar.

Mantiqiy shaklning asosini L.N.Rodnovning ilmiy izlanishlarida uchraydi: "Yaxlit" axloqiy hissiyot bo'lmaydi, unga, xuddi qon tomirlari inson tanasiga singib ketganidek, fikrlovchi va ayni paytda his qiluvchi insonning harakatdagi fikri "o'ralgan" bo'ladi... Mantiqiy shaklga "yaxlit" tuyg'u emas, balki fikr quyiladi va u orqali harakat qiladi" [6].

Tafakkurni qobiliyat sifatida va tafakkurni jarayon sifatida ajratib, birinchi tushunchaga "intellekt", ikkinchisiga "intellektual faoliyat" tushunchalarini mos qo'yish mumkin.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Zamonaviy tadqiqotchilar intellektni "nostandart vaziyatda mo'ljal olish qobiliyati - funksional ta'rif, mantiqda esa - xulosa chiqarish, muammolarni hal qilish, ilmiy nazariyalarni yaratish qobiliyati va boshqalar" deb ta'riflaydilar [2].

"Intellekt boshqa qobiliyatlar asosida yotadi va har qanday faoliyatning muvaffaqiyatini belgilaydi. Amalda bu qobiliyat professionallik me'yorini belgilaydi va o'ziga xos bilimlarni tashkil etishning alohida turi va qaror qabul qilishning samarali strategiyalari bilan tavsiflanadi" [3].

Psixologlar "individ aqliy qobiliyatlarining nisbatan barqaror tuzilmasi" deb hisoblaydigan intellekt ta'lim tizimining mohiyatidir. O'z navbatida ta'lim jarayonida zamonaviy intellektni rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi. Shunga ko'ra, tadqiqotchilar oldida intellektni o'rganish sohasida olingan bilimlarning xilma-xilligini tushunish vazifasi turadi.

Hozirgi vaqtda quyidagi asosiy yondashuvlar mavjud bo'lib, ularning har biri intellekt tabiatini o'ziga xos talqin qilish bilan ajralib turadi:

- ijtimoiy-madaniy (J.Bruner, M.Koul);
- genetik (J.Piaje, U.R.Charlsvors);
- jarayonli-faoliyatli (A.V.Brushlinskiy, S.L.Rubinshteyn,);
- ta'lim (A.Staats, K.Fisher) va boshqalar [4].

"Ma'naviy intellekt" tushunchasi 1994 yilda amerikalik faylasuf D.Boss tomonidan pedagog va psixolog G.Gardner tadqiqotlariga tayangan holda ilmiy muomalaga kiritilgan. Tushunchani kiritish uchun quyidagi asoslar tanlandi: intellektning ko'p qirrali tabiati va har bir intellekt turining o'ziga xos ramziy tizimi [9].

Shunga muvofiq, amerikalik pedagog va psixolog G.Gardner intellektning yetti turini ajratib ko'rsatadi:

1) lingvistik;
2) mantiqiy-matematik;
3) musiqiy;
4) fazoviy (mavhum fikrlash qobiliyatini nazarda tutadi);
5) kinestetik;
6) o'zini o'zi anglash;
7) ijtimoiy (shaxslararo).

G.Gardner o'z tadqiqotida quyidagi xulosaga keladi: "Insonlarni intellekt nuqtai nazaridan tavsiflaydigan narsa keng tushuntirilgan aqliy jarayon emas, balki turli xil ramziy faoliyatlarga jalb qilish qobiliyatidir" [10].

Tadqiqotchi intellekt yagona jarayon emasligini va uni ko'plab usullar bilan ifodalash mumkinligini isbotlaydi. Turli ramziy tizimlarni yaratish ko'nikmasi - bu so'zlar, raqamlar, tana harakatlari, musiqiy ohanglar, xorijiy tillar (axborotning bir turi, birligi sifatida) nafaqat insondan-insonga, balki bitta odamda ham o'zgaradi.

Inson bir ramziy tizimda malakali bo'lishi va boshqasida malakali bo'lmasligi mumkin, garchi aksariyat madaniy rollar aql-idrokning birgalikda ishlashini talab qilganda bu yaqqol namoyon bo'ladi. G.Gardner o'zining qarashlarida "Odatda intellektlar uyg'unlikda ishlaydi, shuning uchun ularning avtonomiyasi ko'rinmas bo'lishi mumkin" [10].

Ta'lim oluvchilarga turli ramziy tizimlarni o'zlashtirishga yordam berish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish zamonaviy ta'limning dolzarb vazifasidir. Intellektlarning har biri o'zining biologik asosi va ramziy tizimiga ega bo'lganligi sababli intellektlar ro'yxatini kengaytirish va unga ma'naviy intellektni kiritish imkoniyati mavjud.

Amerikalik faylasuf D.Boss intellektni keng talqin qilib, kognitiv va bixeviorial komponentlarni ko'rib chiqadi [8]. Ma'naviy intellektni D.Boss tafakkur va hissiyot birligi, o'zini va boshqalarni hurmat qilish, boshqalarning qadr-qimmatini tan olish, rivojlangan empatik qobiliyatlarga ega bo'lish deb ta'riflaydi. Shu bilan birga, "hurmat" tushunchasi nafaqat hukm chiqarishni, balki g'amxo'rlik, hamdardlik, axloqiy qarorlar qabul qilish kabi fazilatlarni ham anglatadi.

Ma'naviy intellektning to'rtta tarkibiy qismi ajratib ko'rsatiladi:

1) axloqiy hukm chiqarish;
2) axloqiy qarorlarni amalga oshirish;
3) siz amalga oshirgan harakatlarning mumkin bo'lgan oqibatlarini tushunish;
4) axloqiy qadriyatlarni anglash (empatiya, axloqiy sezgirlik va boshqalar) [9].

## TAHLIL VA NATIJALAR

Ko'plab intellektlar nazariyotchilarining fikriga ko'ra, har bir avtonom intellekt o'zining ramziy tizimiga ega. Ayniqsa, intuisiya, axloqiy intuisiya, vijdon axloqiy intellektning ramziy tizimini to'ldirishi mumkin edi. D.Boss axloqiy tushunchalar tizimini biz nima qilishimiz, qanday bo'lishimiz kerakligini ko'rsatadigan qoidalar va imperativlar sifatida belgilaydi. Aslida, majburiyat spektri axloqiy intellektga mos keladi. Bu ramzlar yoki imperativlar "ramziy mahsulotlar"da (G.Gardner ta'rifi bo'yicha) uchraydi.

Axloqiy intuisiya vijdon orqali namoyon bo'ladi, uning sifati ham kognitiv, ham affektiv tarkibiy qismlarga ega. Kognitiv omil universal axloqiy tamoyillarda nima to'g'ri va nima noto'g'ri ekanligi haqida ma'lumot beradi. Affektiv komponent esa bizni ma'naviy ma'qullash va ma'qullamaslik, yoqtirish, yoqtirmaslik, aybdorlik tuyg'ulariga undashi mumkin.

Axloqning boshlang'ich motivatsiyasi ichki manbadan - vijdon, intuisiya, empatiya, tanqidiy refleksiyadan kelib chiqadi.

Fransuz psixologi J.Piaje yagona intellekt nazariyasiga amal qilgan. Olim intellektni "barcha tuzilmalar intiladigan muvozanatning muayyan shakli sifatida" ko'rib chiqdi [5]. Ma'naviy intellektning ta'rifi Piajening "amaliy axloq"ni "boshqalarga nisbatan yetuk hurmat... taqiqning birligi, axloqiy hukm va qo'yilgan maqsadlarga erishishga intilish" deb ta'riflaganini eslatadi [11].

Piaje "amaliy axloq" shunchaki e'tiqod va tushunishdan ko'ra, chuqurroq yotadi va "yetuk hurmat" tahliliy qobiliyatlardan ko'ra, ko'proq intuisiyaga asoslanadi, deb hisoblagan.

Bu borada ta'lim muhitida munosabatlar diapazonini o'zgartirish va sifatini yaxshilash, "inson – inson" darajasiga o'tish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. "An'anaviy tushunilgan sub'yekt-sub'yekt darajasidagi munosabatlar paradigmasidan farqli ravishda, nafaqat pedagogik jarayon, balki muayyan hayotiy vaziyat ham talab qiladigan individual, sub'yektiv va shaxsiy fazilatlarni birgalikda va ularning namoyon bo'lishida o'zaro ta'sir doirasiga jalb etish nazarda tutiladi" [7].

Zamonaviy psixologiya fanida shaxsning yaxlitligi kontekstida ijodiy tafakkurni rivojlantirish kabi ma'naviy-axloqiy sohani shakllantirish yo'llarini anglash davom etmoqda. Shu bilan birga, zamonaviy ta'limning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat bo'lib qolmoqda: intellektual an'anani saqlash va rivojlantirish, ta'lim muhitini axborot bilan bir qatorda insonparvarlik energiyasi bilan to'ldirish va boshqalar. Shu munosabat bilan zamonaviy ta'limning, shu jumladan gumanitar siklning asosiy intellektual-axloqiy qadriyatlarini ajratib ko'rsatish mumkin: Jumladan:

- ta'lim oluvchilarning intellektual imkoniyatlari;
- intellektual an'analarga asoslangan o'qitish usullari va uslublari;
- axloqiy hukmlar chiqarish qobiliyatini tarbiyalash;
- axloqiy qarorlar qabul qilishni tarbiyalash;
- o'z xatti-harakatlarining oqibatlarini anglash qobiliyatini tarbiyalash;

- axloqiy qadriyatlarni anglash qobiliyatini tarbiyalash;
- qabul qilinayotgan qarorlarni axloqiy motivatsiyalash qobiliyatini tarbiyalash;
- mutaxassisning refleksiv-sub'yekt modelini shakllantirish kontekstida ekzistensial refleksiya;
- ijodiy fikrlash jarayonlarini o'rganish.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, ma'naviy intellektni avtonom intellekt, oqilona axloqiy qobiliyat, o'ziga va boshqalarga hurmat ko'rsatish, boshqa insonlarning qadr-qimmatini idrok etish sifatida ko'rib chiqish mumkin. Ma'naviy intellektning ramziy tizimi inson xulq-atvorini belgilaydigan axloqiy tushunchalar, qoidalar va imperativlar tizimini o'z ichiga oladi. Haqiqiy ma'naviyatli inson ma'naviy intellektning barcha jihatlarini muvaffaqiyatli birlashtirish qobiliyatiga ega.

Demak, axloqiy tarbiya jarayonida insonparvarlik metodlari: dialog va tushunish, o'zini o'zi tarbiyalash va o'zini o'zi anglash, insonni ma'naviyat maydoniga, madaniyat olamiga olib kirish metodlaridan foydalanish to'g'ri bo'ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Иванкина Л.И. Образование в современном мире. Томск: Изд-во ТПУ, 2004. С.65-66.
2. Кузнецова А.Я. Гуманистическая философия образования: естественнонаучный взгляд. Новосибирск: Изд-во СО РАН, 2004. – С. 48.
3. Мухаметзянова Г.В. Профессиональное образование: системный взгляд на проблему. Казань: Идел-Пресс, 2008. С.115.
4. Педагогика: Большая современная энциклопедия. Сост. Е.С.Рапацевич. Минск. “Современное слово”. 2005. С.201.
5. Пиаже Ж. Природа интеллекта: Хрестоматия по общей психологии. М. 1981. с. 49.
6. Роднов Л.Н. Разум и нравственность в единстве сознания. Вестн. Моск. Ун-та. Сер
7. Талалова Л.Н. Интеграционные процессы в образовании: контекст противоречий. М.: Изд-во РУДН, 2003. – С. 172.
8. Boss J. The Autonomy of Moral Intelligence: Advances in Research and Theory. New York: Praeger. 1994. P. 399 – 416.
9. Boss J. The Effect of Community Service Work on the Moral Development of College Ethics Students, Journal of Moral Education 23. – Illinois,1994. – P. 183- 189.
10. Gardner H. Frames of Mind. N.Y., 1983. – 300 p.
11. Piaget J. The Moral Judgment of the Child. London,1932. – P. 171.

| | |
|---|---|
| 13.00.00 | Pedagogika fanlari |
| 13.00.01 | Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi |
| 13.00.02 | Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha) |
| 13.00.03 | Maxsus pedagogika |
| 13.00.04 | Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.05 | Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.06 | Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha) |
| 13.00.07 | Ta’limda menejment |
| 13.00.08 | Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.09 | Ijtimoiy pedagogika |
| 07.00.00 | Tarix fanlari |
| 19.00.00 | Psixologiya fanlari |
| 01.00.00 | Fizika-matematika fanlari |
| 02.00.00 | Kimyo fanlari |
| 03.00.00 | Biologiya fanlari |
| 09.00.00 | Falsafa fanlari |
| 10.00.00 | Filologiya fanlari |
| 11.00.00 | Geografiya fanlari |

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov
**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov
**Musahhih:** Alibek Zokirov
**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2025. №8**



© Materiallar koʻchirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida koʻrsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi boʻyicha roʻyxatdan oʻtkazilgan.
**Litsenziya raqami: № 136361**.

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.